



MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

MA'NAVIYAT – ENG
TA'SIRCHAN VA QUDRATLI
QUROLIMIZ

Ma'naviy-ma'rifiy gazeta

● 9-10 (209-210)-son ● 2022-yil, 16-may ● www.manaviyat-kuzgusi.uz ● newspaper@inbox.uz

MEHR VA SHAFQAT HAMSHIRALARI ULUG‘LANDI

12-may — Xalqaro hamshiralar kuni munosabati bilan butun mamlakatimiz, shu jumladan, vohamiz bo‘ylab xalqimiz salomatligini mustahkamlash yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha hamshira opa-singil va qizlarimizni, tibbiyot tizimi, sog‘liqni saqlash sohasining chinakam fidoyi, jonkuyarlarini samimiy tabriklash maqsadida turli tadbir, uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etildi.



Eng faol va ko‘p sonli faoliyat ko‘rsatuvchi Navbahor tumani tibbiyot birlashmasi xodimlari ishtirokida tumanning "Qalqonota" mahallasidagi "Shukrona" to‘yxonasida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Unda tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Y.Abdualimov, ustoz shifokor B.Gaffarov so‘z olib mehr va shafqat hamshiralarga o‘z bayram tabriklarini yo‘lladilar. El salomatligi yo‘lida

fidokorona mehnat qilib kelayotgan najot farishtalari mehnatlari tahsinga loyiqligi e‘tirof etildi.

Tuman badiiy havaskorlari ijrosidagi dilrabo kuy va qo‘shiqlar, jozibali raqslar davraga yanada fayz bag‘ishladi.

Ma‘rufjon AHMEDOV,
Navbahor tuman ma‘naviyat va
ma‘rifat bo‘linmasi rahbari.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

BOLALAR – HAYOTIMIZ DAVOMCHILARI

Umrimiz mazmuni, quvonch-u shodliklarimiz sababchilari. Ularning beg‘ubor chehrasi bizga kuch va madad beradi. Shu bois bolajonlarimizning baxtiyor hayot kechirishlari uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

Yosh avlodga g‘amxo‘rlik qilish, ularning ma‘nan va jismonan baquvvat bo‘lib kamol topishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya topishlari davlat siyosatidagi muhim vazifalardan va yurtimizda bolalar manfaatlarini doimo har narsadan ustun sanalib, ularning nurafshon ertasi yo‘lida qilinayotgan imkoniyatlar tahsinga loyiq.

Bugun qalbida ona-vatan, mustaqillik yutg‘ulari shakllanayotgan o‘g‘il-qizlarimiz chin ma‘nodagi osmoni musaffo, erkin makonning baxtli avlodlaridir. Ne-ne buyuk ajdodlarining baxtiyor vorislari besh yoshida ustozini hayratga solgan ota-bobolari bilan faxrlansa arziydi!

Alisher. Navoiydek, hali bola bo‘la turib dunyo xaritasini tuzishni orzu qilgan Beruniy, Osmon ilmiga qiziqib, yulduzlarga termulgan Ulug‘bek bobolari-



ga munosib izdosh bo‘lishlari shart. Bu borada esa ularni doimo qo‘llab-quvvatlaydigan jannatmakon go‘sha bor. Faqatgina tinch, keng osmon bag‘rida baland parvoz sari olg‘a intilish kifoya. Garchand istiqlol farzandlari shoir aytgani kabi yurtimiz nomini faqatgina dunyoga tanitishi lozim.

Vatanimiz qaldirg‘ochlari Ozod-Vatan o‘g‘il qizlari.

Tinchlikni deb, do‘stlikni deb, Charaqlagan ko‘p yulduzlari. Go‘zallikdan yashnaydi olam Istiqlolni bolalarisiz Kelajakka tashlaysiz qadam Mustaqillik bolalarisiz.

Mohinur ISMATULLOYEVA,
Nurota tumani 18-IDUM
boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi.

"ZOMIN" XALQARO SEMINARINING SARALOV BOSQICHI

"Zomin" xalqaro seminarining Navoiy hamda Buxoro viloyat yosh ijodkorlarini saralovchi hududiy bosqichi Navoiy shahrida Uyushmaning Navoiy viloyat Bo‘limi joylashgan hashamatli binoda tashkil etildi.

Erta tongdan poytaxtdan bir guruh taniqli ijodkorlari Navoiy shahriga yetib kelgach, buxorolik hamda navoiylik ijodkorlar hamda keng jamoatchilik vakillari birgalikda viloyat markazidagi mutafakkir shoir Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo‘yishib, ulug‘ shoir ruhiga hurmat bajo keltirishdi. Xuddi shu manzilda

mushoiralarga aylandi.

Kunning ikkinchi yarmida us-tozlarning yosh ijodkorlarga havaslari yanada ortgani tufayli javzo oftobida qoraygan yuz-u ko‘zlaridan nur balqib turgan yosh ijodkorlar navbat bilan qalb tug‘yonlari ila bitilgan she‘rlari va hikoyalari, adabiy o‘ylari va orzulari ifodalangan badialarini o‘qib berishdi. Yoshlarning o‘ta hayajon va iztirobning turfa ranglari aralash bitilgan satrlari tantana qila boshlaganda qosh qoraya boshlagandi. Buxorodan tashrif buyurgan yosh shoirlarga navoiylik yosh ijodkorlar bahru bayt bilan javob beraverdi. Seminar davom etayotgan binoga tutashgan bog‘ning qulf urgan anvoyi gullari barcha-barchani "Qizilqum oq-shomlari" adabiy gurunigining navbatdagi mushoirasiga chor-lardi.



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri, Oliy Majlis Senati a‘zosi Sirojiddin Sayyid imzosi bilan chiqarilgan maxsus buyruqqa asosan bir guruh buxorolik va navoiylik taniqli ijodkorlarning O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zoliciga qabul qilinganligi e‘lon qilindi hamda o‘nlab kitoblarni muallifi, adib Xudoyberdi Navro‘z, shoira Musfira Munavvarova, Yozuvchilar uyushmasi Navoiy viloyat bo‘limi bosh mutaxassisi Hulkar G‘afforovaga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a‘zolik guvohnomalari topshirildi. Buxorolik va navoiylik ijodkor yoshlarning ilk kitoblari nazm, nasr, badiiy publisistika, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, adabiyotshunoslik, dramaturgiya shobalaridagi muhokamalarini qizg‘in tus oldi. Poytaxtdan tashrif buyurgan ijodkorlardan taniqli shoira, "Saodat" jurnali bosh muharriri Munavvara Usmonova, adabiyotshunos olim Musulmon Namozov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi markaziy apparati mas‘ul xodimlari Ma‘mura Zohidova hamda Nargiza Asadova, Uyushmaning Buxoro viloyat Bo‘limi rahbari Shodmon Sulaymon, navoiylik ijodkorlardan Rahim Qodirov, Abduhamid Xolmurodov, Salima Umarova, Boboqand Umarov, Ruslan Saburov, Odil Hotamov yosh ijodkorlar bilan uyushtirilgan muloqotlar qizg‘in saboqlarga,

Sh.Mirziyoyevning shijoati va tashabbusi bilan ozod va obod O‘zbekistonimizning mard va jasoratli xalqi Uchinchi renessansga qadam qo‘ygan ushbu kunlarda Tinchlik atalgan ulug‘ ne‘matning mamlakatimizda hukmronligi tufayli har lahzalar o‘tli she‘riy satrlarga, yangidan yangi tug‘yonlar bitilgan kitoblarga aylanmoqda. Kitobxonlik azaliy peshonasiga baxt quyoshi yanglig‘ bitilgan ulug‘ xalqimizning saodatli kunlari bardavom bo‘lsin!

Bahriddin SADRIDDINOV



KITOB FONDIMIZ 800 TAGA KO'PAYDI

Buyuklarni buyuk qilgan asosiy qudrat bu — kitob. Olam sirlarini jamlagan va uni dunyoda yoygan ham kitob. Odamni oyga olib chiqqan, bugunning tili bilan aytilayotgan "modernizatsiya", "innovatsiya"larning quvvat o'chog'i — kitob.

Kitob — insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, ta-fakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan.

Ma'lumki, shahrimizda kitobxon mutolaasi va kitobxonlar soni kundan kunga oshmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ehtiyojga qarab turli xil badiiy adabiyotlar sonini yanada boyitish kerakligini taqozo etadi. Shu maqsadda shahar axborot-kutubxona markaziga Zarafshon shahar hokimligi tomonidan 12 million 800 ming so'mlik 800 dan ortiq yangi badiiy kitoblari olib berildi.

Albatta, bu hamshaharlarimizni yangidan-yangi Ma'naviyat dur-laridan bahramand etadi.

D.BAHRONOVA

Zarafshon shahar ma'naviyat va ma'rifat
bo'linmasi rahbari.

EL SEVGAN SHOIR

O'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf taval-ludining 68 yilligi munosabati bilan Navoiy shahridagi 14-umu-mta'lim maktabida "El sevgan shoir" nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Kechada yuqori sinf o'quvchilari tomonidan shoir ijodi asosida ijro etilgan el-u yurtga sadoqat, insonpavarlik g'oyalarini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari, vatanga muhabbat tuyg'ulariga yo'g'rilgan qo'shiqlar va chuqur falsafiy ma'no mujassam she'r-lar ijro etildi. Shuningdek, Muhammad Yusuf haftaligi doirasida barcha sinflarda ochiq darslar yuqori saviyada tashkil etildi.

Dilorom SARMONOVA.

USTOZNI YOD ETIB

Kuni kecha shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 1-umumiy o'rta ta'lim makta-bida 9-may "Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan butun umrini xalq farzandini o'z farzindidek e'zozlagan jonkuyar inson, marhum ustoz Bo'ronov O'ktam Baqoyevichning porloq xotirasiga bag'ishlangan "Umlar bo'ladiki, tirigida o'likdir, umrlar bo'ladiki, manguqlikda tirikdir" nomi ostida xotira tadbiri o'tkazildi.



Tadbirida so'z olgan faxriy pe-dagoglar, bir guruh Nurota tu-mani hamda viloyatimizning maorif tizimida xizmat qilgan ta'lim fidoilari, do'st-yorlari to-monidan marhum ustozning hayot yo'llari haqidagi xotiralar u kishining hayotda, zero qisqa umr ko'rgan bo'lsalar-da, o'zi-dan o'chmas iz qoldirganliklari haqida fikr bildirishdi.

Tadbir so'ngida marhum us-tozning 60 yilliklari munosabati bilan chop etilgan "Ma'rifatga baxshida umr" nomli kitob taq-dimoti ham o'tkazildi.

Tadbir so'ngida ustozning haqlariga duo qilindi.

Nurali HOSHIMOV,
G'ozg'on shahar Ma'naviyat
va ma'rifat bo'linmasi
rahbari.

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Konimex tumanida 57,0 mlrd. so'mlik chakana savdo tovar aylanmasi (umumiy ov-qatlanish korxonalari bilan birga) amalga oshirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalar bo'yicha tumanda chakana savdo tovar aylan-masi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etib (umumiy ovqatlanish korxonalari bilan birga), jami tuman chakana savdosi hajmidagi ulushi 0,3 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bo'yicha tu-manimiz chakana savdo hajmi 2022-yil yanvar-mart oylarida 55,7 mlrd. so'm miqdorida baholandi va o'tgan yilning mos davriga nis-batan 104,2 foizni tashkil etdi (jami tuman chakana savdo hajmi-dagi ulushi 97,8 foiz). Joriy yilning yanvar-mart oylarida tumani-mizda 1,3 mlrd. so'mlik ulgurji savdo tovar aylanmasi amalga oshi-rilgan bo'lib, jami tuman ulgurji savdosi hajmidagi ulushi 0,3 foizni tashkil etdi, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi esa 1,1 mlrd. so'm miqdorida baholandi.

J. KURBANBAYEV,

Konimex tumani statistika bo'limi boshlig'i.

YO'LLARDA INSON HAYOTI HIMOYASI

Viloyatimizda joylashgan ko'cha va yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash va yo'l-transport hodisalarini oldini olish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilayotganli-giga qaramasdan piyodalar bilan bog'liq hodisalar soni kundan-kunga oshib borayot-ganligi kuzatilmoqda. Birgina 2021-yilda viloyatimizda sodir etilgan 331 ta YTHlarning 59 tasi piyodalar ishtirokida bo'lib, shulardan 3 nafar fuqaro halok bo'lgan, 57 nafar fuqaro esa turli darajadagi tan jarohatlari olgan.

Viloyat hududida piyodalar bilan bog'liq noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2022-yilning 1-fevralidan 31-mart kuniga qadar "Diqqat, piyoda" tadbiri o'tkazildi. Ushbu tadbirida Ichki ishlar idoralari tomonidan mahalliy hokim-liklar, o'zini-o'zi boshqarish idoralari hamda keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Shahar-tumanlar hududlarida "Targ'ibot avto-karvoni" tadbiri o'tkazilishi tashkillashtirildi. Odam gavjum joylarda piyodalarning majburiyatlari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi, ko'r-gazmali vositalar orqali yo'l harakati qoidalari targ'ib qilindi.

Piyodalarning, ayniqsa, bolalarning, piyodalar

o'tish joylaridan yo'llarni kesib o'tishlari, svetofo-r, yo'l belgilarining talablariga qat'iy amal qilishlari yuzasidan nazorati kuchaytirilib, YPX inspekto-r-larining xizmat faoliyati ko'rsatkichlari muhokama qilib borildi.

Shuningdek, viloyatimizdagi ko'cha va yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash va yo'l-transport hodisalarini oldini olish, tashkilot va korxonalar, mehnat jamoalari hamda mahallalarda piyodalar o'rtasida harakatlanish madaniyatini shakllan-tirish borasida profilaktik tadbirlar hamda OAV orqali targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilib kelinyapti.

Azizjon SHARIPOV,

Navoiy shahar IIB YHXB inspektori.

TADBIRKORLIK QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta'minlash amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Zero, tadbirkorlik rivoji — yurtimiz va iqtisodiyotimiz taraqqiyoti garovidir.

Viloyat prokuraturasi organlari tomonidan tad-birkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish uchun qu-lay muhit yaratish va tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoyasini ta'minlash borasida muay-yan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, viloyat prokuraturasi organlari tomonidan ishchi guruhi bilan amalga oshirilgan o'rganishlar na-tijalariga ko'ra, faoliyatini to'xtatgan, lekin amal-da faoliyatini tiklash va rivojlantirish imkonini mav-jud bo'lgan 61 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda 31 ta yuridik shaxslar aniqlanib, faoliyati tiklanishi ta'minlandi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ular sonini oshirish borasida olib borilgan ishlar natijalariga ko'ra, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda jami 377 ta yangi kichik biznes subyektlari ro'yxatga olindi. Ro'yxatdan o'tmasdan ish boshlagan 46 ta tadbirkorlik subyektlarining davlat ro'yxatiga olinishi ta'minlanib, ularning faoliyati qonuniylash-tirildi.

Prokurorlar tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar va uchrashuvlar davomida 192 ta tadbirkorlarning muammolari hal etilib, shundan 31 nafariga 3,1 mlrd. so'm kredit ajratilishida, 101 nafar tad-birkorning kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi-da, 3 nafar tadbirkorga ruxsatnomalar olib berili-shida hamda 55 nafarida boshqa masalalarda amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Masalan, viloyat prokuraturasining amaliy yor-damiga asosan "One step solution" MCHJga ATIB "Ipotekabank" Navoiy viloyat filialidan ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish maqsadida 6,2 mlrd. so'm miqdorida kredit ajratildi. Bundan tashqari, viloyat prokurori rahbarligida viloyatdagi mutasaddi idora va tashkilotlar ishtirokida tadbir-korlik subyektlari bilan doimiy ravishda sayyor qabullar tashkillashtirilib kelinmoqda. Birgina, aprel oyining o'tgan davrida viloyat prokurori tomo-nidan o'tkazilgan 50 dan ortiq tadbirkorlar bilan bevosita uchrashuvlarda 20 ga yaqin tadbirlarning muammolari joyida hal qilindi.

Jumladan, "Gold-Oshiyon" MCHJ rahbarining murojaatiga asosan ushbu jamiyatdan noto'g'ri undirilgan 1,4 mln. so'mlik to'lovning davlat xiz-matlari agentligi orqali tadbirkorga qaytarilishi ta'minlandi.

M.Sattorovanning murojaatiga asosan u rahbar-lik qilayotgan "Salomat" xususiy korxonasiga tib-biy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun 400 mln. so'm kredit ajratish bo'yicha "Sanoat-qurilishbank" ATB Navoiy mintaqaviy filiali bilan kredit shartnomasi tuzilishi va shundan 200 mln. so'mining ajratilishi ta'minlandi.

Farxod MAMALATIPOV,
Navoiy viloyat prokurorining
katta yordamchisi.

RO'YXATGA OLUVCHI XODIMLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ma'lumki, 2023-yilning 11-22 noyabr kunlari aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari asosida uyma-uy yurib aholini ro'yxatga olish o'tkaziladi.

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazishda ro'yxatga oluvchi xodimlar:

— so'rov o'tkazishdan oldin o'zini tanishtirishi, respondentga o'z guvohnomasini ko'rsatishi, tashrif maqsadini tushuntirishi, shuningdek, ro'yxatga olishda ishtirok etishning muhimligi, respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlanishi va so'rov taxminan qancha vaqt davom etishi to'g'risida ma'lumot berishi;

— shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jarayoni-da aholini ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymasligi;

— ro'yxatga olish varag'ida keltirilgan ketma-ketlik bo'yicha savollar berishi, ro'yxatga olish varag'ida mavjud bo'lmagan savollarni bermasligi;

— aholini ro'yxatga olish varag'i shakllarini to'l-dirish bo'yicha yo'riqnomada keltirilgan tushun-tirishlardan tashqari respondentga qulaylik yara-tish maqsadida qo'shimcha ravishda tushun-tirishlar berishi;

— xushmuomala bo'lishi, boshqa shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qil-masligi yoki ularning hayoti, sog'ligi va mol-mulkiga xavf solmasligi, shuningdek, statistika organlari obro'siga putur yetkazadigan harakat-lardan saqlanishi;

— shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va ularning mazmunini oshkor qil-masligi;

— o'z vakolatlariga muvofiq ishlarni to'liq, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi lozim.

Viloyat statistika boshqarmasi.



Hech narsa aytmaydigan so'zlar bor,
Hamma narsani so'zlaydigan jimliklar bor.

Ayman Yog'iy



27 DAVLAT VAKILLARI BILAN UCHRASHUV

"Mehnatning tagi rohat" degan naql bor xalqimizda.

"XXI Xalqaro Pushkin konkursi laureati" maqomini qo'lga kiritgan 20-maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi Alisher Xudoynazarov barcha laureatlar singari Moskva shahrining Tashqi iqtisodiy va Xalqaro aloqalar Departamenti va "Rossiyskaya gazeta" tahririyati tomonidan Moskva shahriga sayohatga taklifnoma oldi.

Mazkur 5 kunlik sayohatning dasturidan seminarlar, "Rossiyskaya gazeta" tahririyatida davra suhbat, shahardagi turli muzeylar bo'ylab sayohatlar, albatta, 4 yulduzli "Holiday INN MOSCOW Lesnaya" mehmonxonasida tantanali taqdirlash marosimi tadbirlari o'rin oldi.

"Bir vaqtning o'zida 27 davlatdan tashrif buyurgan hamkasblar bilan uchrashish, fikr almashishning o'zi katta gap. Muloqotda hech qanday muammoga o'rin yo'q, chunki kasbimiz tufayli bizni aynan rus tili bog'lab turgan edi" — deydi Alisher Xudoynazarov. — Ushbu sayohatga borishdan avval men xam sportchilar kabi yurtimiz bayrog'ini olib borib, ko'tarishni niyat qilgan edim va niyatimga etganimdan mamnunman".

Marosim davomida barcha laureatlarga yuksak

maqom "Xalqaro Pushkin konkursi Laureati" va diplomlar topshirildi, romanslar kuylanib, shirinliklar tortildi. Tadbir so'ngida g'oliblar uchun Moskva daryosi bo'ylab 2 qavatli "Radisson Royal" yaxtasida unutilmas banket uyushtirildi.

Ha, chindan ham mashaqqatli mehnatning samarasi bu. Alisher ustoz o'zining izlanuvchanligi, tirishqoqligi tufayli so'nggi 3 yil ichida 2 marta ana shunday natijaga erishgan viloyatimizning yagona vakilidir. Bunday ustozlar albatta o'quvchilarga ham o'ziga xos andaza, o'rnak bo'ladi, muvaffaqiyatlari esa kishida faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otadi. Yutuqlar bardavom bo'lsin, ustoz, ofarin!

Latofat SOLIYEVA

"INSON QADRI UCHUN"

Mazkur ezgu g'oya asosida va "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" Davlat dasturi doirasida xalqimizga tibbiy xizmat ko'rsatish kabi bir qancha maqsadlarni ko'zlagan O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi, Navoiy viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi hamda Nurota tumani hokimligi bilan hamkorlikda Navoiy viloyati Nurota tumanining olis "Yangi turmush" mahallasida "Papanay" oilaviy shifokorlik punktini ochilish marosimi va qishloq aholisi uchun bepul tibbiy ko'rik xayriya aksiyasi tashkil etildi.

Marosimda "Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi raisi Faxriddin Soliyev, Nurota tumani hokimi Azamat Fayziyev so'zga chiqib, qishloq aholisini yangi poliklinikaning ishga tushirilganligi bilan muborakbod etdi. Shundan so'ng "Mahalla" fondi viloyat bo'limi tomonidan "Papanay" oilaviy shifokorlik punktiga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining xayriya mablag'lari hisobidan xarid qilingan 2 ta kompyuter jamlanmasi, bitta printer, bir dona sovutgich, bir dona muzlatgich va boshqa maishiy texnika vositalari topshirildi. Xayriya aksiyasi doirasida viloyat sog'likni saqlash boshqarmasining oliy toifali shifokorlari ko'krak qafasi, buqoq va buqoqoldi bezlari, quloq, tomoq va burun kasalliklari, buyrak va jigar xastaliklari, kattalar va bolalarda uchraydigan ko'z kasalliklari bo'yicha 500 ga yaqin qishloq aholisini ko'rikdan o'tkazdi va ularga bepul tibbiy maslahat hamda yo'llanmalar berishdi. Hozirda "Papanay" oilaviy shifokorlik punktida 16 nafar tibbiyot hodimi xizmat qiladi.

"Bizning "Papanay" qishlog'ida 2200 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishlog'imizda tibbiyot muassasasi bor edi, lekin foydalanishga yaroqsiz edi. Agar bizga shifokor kerak bo'lsa qishlog'imizdan 50 km olisdagi tuman markaziga borish kelishga to'g'ri kelardi. Mana bugun ushbu tibbiyot maskani yangidan foydalanishga topshirildi. Aksiya doirasida malakali shifokorlardan bepul tibbiy maslahatlar oldim. Bugungi aksiyani tashkil qilgan barchaga o'z minnatdorchiligimizni bildiraman." — deydi Qarshiev Murodillo hoji bobo.

Aksiya natijasiga ko'ra, sog'ligini tiklashga muhtoj bo'lgan fuqarolar, mutaxassislar xulosasi va sektor rahbarlarining ma'lumotnomasi asosida Xalq deputatlari tuman Kengashida ko'rib chiqilib, qarori asosida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan ularga dori-darmon vositalari bilan ta'minlash va davolash uchun mablag' ajratiladi.

Jonibek QODIROV,

"Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi bosh mutaxassisi.

MUSHOIRADA 100 GA YAQIN SHE'RLAR

Navbahor tumani 7-maktabda O'zbek xalq shoiri M.Yusuf tavalludining 68 yilligi munosabati bilan MMIBDO' B.Ramazonov va maktab kutubxonachisi L.Hayitova, maktab targ'ibotchisi K.Ablaqulova, 5-6-7-sinf rahbarlari hamkorligida "YURAKKA KO'MILUR ASL SHOIRLAR" deb nomlangan mushoira kechasi tashkil qilindi. Mushoira 3 bosqichdan iborat bo'lib, 1-bosqichda 5"A" va 5"B"sinf 2-bosqichda 6-7-sinf ijodkor o'quvchi qizlari o'zaro bahslashdilar. 3-bosqichda 1 va 2-bosqichda g'oliblikni qo'lga kiritgan 5-"A" sinf va 6-sinf ijodkor o'quv-



chi qizlari g'oliblik uchun bellashdilar. Mushoira shoirning 100 ga yaqin she'rlari aytili va do'stlik g'alaba qozondi.

Gulnoza ERGASHEVA,

Navbahor tuman 7-umumta'lim maktab o'qituvchisi.

OYLIK DOIRASIDAGI
AMALIY ISHLAR

Viloyatimiz bo'ylab 2022-yilning 1-apreldan 1-may kuniga qadar "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi oyligi" o'tkazildi.

Oylik davomida ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlarida 35 marotaba o'rganish, muhofaza tadbirlari 30 marotaba, ovqatdan zaharlanishni oldini olish maqsadida oylik davomida 20 marotaba reydtadbiri, seminar, davra suhbatlari 41 marotaba tashkil etildi. Shahardagi sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda fuqarolarga tabiiy va is gazidan zaharlanishi, Botulizm, odamlar va hayvonlar o'rtasida uchraydigan kasalliklar, Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi, voyaga etmagan farzandlarini qarovsiz qoldirmasliklari yuzasidan keng ko'lamli tavsiyalar berib kelinmoqda.

Kamoliddin NASILAYEV,

Navoiy shahar FVB FVDT va FMFT, XTB boshlig'i.

Sirojiddin BEGALOV,

Navoiy shahar FVB PNB YONPB mutaxassisi.

HUQUQBUZARLIK
PROFILAKTIKASIDA
QONUN USTUVORLIGI

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirish dolzarb masalalardan biridir. Zero, har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuh, qudrati va tarkibi yo'qoladi", deb bejizga ta'kidlamagan edilar. Shu nuqtaiy nazardan, qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezonini hisoblanadi.

Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Yaratganning bebaho ne'matlarini, hayotdagi ijobiy o'zgarishlarni qadrlash tuyg'usini farzandlarimiz qalbiga yoshligidan singdirib borishimiz zarur.

Ammo bu o'zgarishlar tufayli jamiyatimiz salbiy illatlardan, qonunga bepisandlik holatlaridan batamom qutuladi, deb aytishga hali erta. Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor.

Qonun ustuvorligi — bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart.

Shu boisdan ham barcha bo'g'indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo'lsin, ana shu tamoyilni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhit yaratishimiz zarur.

Qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli muammolarni oldindan ko'ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga bunday holatlarni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan tizimni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Konstitutsiyada jamiyatdagi mavjud huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid munosabatlarining asoslari o'rnatilgan bo'lib, bu asoslar ushbu yo'nalishni tartibga soluvchi qonun va qonunosti normativ hujjatlarda yanada oydinlashtirilib, rivojlantiriladi. Bu qonunlarga rioya etilishi darajasi esa, jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi. Qolaversa, unda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda burchlari, davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning huquqiy maqomi asoslari belgilab qo'yilgan. Uni ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu vazifaning bajarilishi mamlakatda qonuniylilikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlarini taqozo etadi.

Bexruz JUMAYEV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti.



Siz so'zlarni tashqariga chiqarmaguningizcha ular sizga tobe bo'ladi. Ularni qo'yib yuborganingizdan so'ng esa siz ularga tobe bo'lasiz.



ARMONLI DUNYO

Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 77 yil bo'lgan bo'lsa-da, u solgan alam hamon xalqimiz qalbini o'rtab keladi...

Nurota tumanining "Shahriston" MFY da umrguzaronlik qiladigan 77 yoshli Maqsuda aya Ahatova qalbini necha yillardan buyon alamli bir dard ezib keladi. Aya bilan uchrashib qolganimda urush xotiralarini ko'z yosh bilan so'zlab berdi.

"Rahmatli otam Ahat Karimov 1941-1945 yillarda urushda bo'lganlar. Urushning tugashiga oz muddat qolganida otam og'ir yarador bo'ladi. Jarohati og'ir bo'lgani uchun Nurotaga qaytadi. Otam urushdan olgan bedavo jarohatlari tufayli vafot etgan. O'shanda men onam qornida 9 oylik bo'lgan ekanman. Otamning vafotidan 6 kun o'tib dunyoga kelganman. Bolaligimni eslasam, na otam diydorini ko'rganman, na ular mehriga to'yanman. Tog'alarim qo'lida voyaga yetganman. Ulardan bir umr minnatdor bo'lib yashadim. Armonli dunyo ekan har doim ota-onamni eslaganimda mana shunday achchiq ko'z yoshlarim qalbmni o'rtaydi..."

Maqsuda aya 1969-yili Muzaffar ota bilan turmush qurib 53 yildan beri tinch-totuv yashab kelishmoqda. Aya "Nurnoma" (avvalgi ilg'or



chorvador) gazetasida 36 yil harf teruvchi, sahifalovchi bo'lib ishlab nafaqaga chiqqanlar. Muzaffar ota ham qator yillar turli lavozimlarda ishlab hozirda qarilik gashtini surmoqda. Ular 5 qiz 1 nafar o'g'ilni voyaga yetkazib, 20 nafar nabira 13 nafar abiraga boshqosh.

Maqsuda aya milliy qadriyatlarimiz, osori aqidalarimizni qadrlab kelayotgan ayollarimizdan. Bahor kelishi bilan dosh-qozonlarda sumalak pishirib, qo'ni-qo'shni, qarindoshlarga ilinadi. Holvaytar, qotir, halim, go'ja, g'ilbindi, yarma, yoshmon kabi qator milliy taomlarimizni maromida tayyorlab, yosh-u qariga ulashadi.

Bemorlar holidan xabardor bo'lib turishni savob biladi. To'y-u tomoshalarda momomeros udumlarimizning targ'ibotchisi bo'lib, davralarga fayz kiritadi. Qariyb 80 yoshni qarshilayotgan onaxon bu dorulamon kunlarga shukrona aytib yoshlarimizga hayotni qadriga yetib, elim, yurtim deb yashashlarini aytib aslo charchamaydi.

Shodigul HUSENOVA,
Nurota tumani 1-IDUM targ'ibotchisi.

XOTIRA — ABADIY

Xotiramiz tiniqligi bizning qalbimiz pokligidan, ruhimiz tozaligidan dalolatdir. Ajdodlar nomini eslash, ruhlarini yod etish bizning burchimizdir. Asli bu muqaddas tuyg'ular azaldan qon-qonimizga singib ketgan.

Xatirchining "Sangijumon" qishlog'ining farzandi bo'lgan, bir necha yillar davomida tumanimizdagi "Yangi hayot" (hozirgi "Xatirchi hayoti") gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlagan, o'z jurnalistik faoliyatini "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnalida boshlab, "O'qituvchi" nashriyotida, "O'zbekiston" televideniya-sida davom ettirgan falsafa fanlari doktori, Jumaqul Karimni eslamasdan ilojimiz yo'q.

Jumaqul Karim bolalikdan juda iqtidorli, o'z tengdoshlaridan zehni va qobiliyati bilan ajralib turgan. Cho'pon oilasida tavallud topgan zehni o'tkir J. Karim qo'y boqish uchun qirlarga chiqib ketardi va u yerda ham qo'lidan kitob tushmasdi.

Karim aka bir necha ilmiy va badiiy kitoblar muallifligiga erishdi. Uning "Sangijumon toshi-besh qishloq boshi", "Xatirchinoma", "Seni izlaganim", "21-chempion", "Qalb xazinasini", "Sadoqat", "Demokratik jamiyatda erkin tafakkur rivoji", "Oq qushlar", "Avlodlar onasi Tegini begim", "Peshonamda yorqin oy" kabi asarlari hozirgi kunda o'z o'quvchilarini topib ulgurdi.

Ha, bu dunyoda hayot bo'lmasa-da asarlari bilan xalq ichida hamon yashayotgan shunday insonlar bor.

Latofat SOLIYEVA,
20-maktab tar'ibotchisi.

E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK —
INSONIY BURCH!

Millionlab begunoh insonlarning bevaqt o'limi, mislsiz yo'qotishlar va talafotlarga sababchi bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyodagi eng qonli qirg'inlardan biri sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi ham haqiqiy jasorat va fidoyilik ko'rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga ulkan hissa qo'shdi. Xususan, 2 millionga yaqin yurtdoshimiz janglarda ishtirok etib, ularning 500 mingdan ortig'i qahramonlarcha halok bo'ldi. Shu bilan birga, urush davrida respublikamiz front uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha va boshqa vositalarni yetkazib beradigan muhim ta'minot markazlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz janglar davom etayotgan hududlardan O'zbekistonga ko'chirilgan 1,5 milliondan ortiq keksalar, ayollar va yosh go'daklarni bag'riga olib, og'ir damlarda ularga beqiyos g'amxo'rlik ko'rsatdi.

Bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va mardlik namoyon etib, bugungi tinch va osoyishta kunlarimiz uchun jonini fido qilgan jasur yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasini e'zozlash va faxrilarimizning hurmatini

joyiga qo'yish yurtimizda ezgu an'anaga aylangan.

1924-yil 15-dekabrda Dehibaland qishlog'ida tug'ilgan Norboy bobo Kazakov ham ko'plab millatdoshlari qatori II jahon urushiga otlandi.

Norboy bobo 1942-yil Belorussiyaning Minsk shahrida xizmatda bo'lgan. 1943-yil Orlov, Kursk, Litva, Latviya, Bessarabiya, Polsha ostonalaridagi janglarda qatnashgan. Urush davrida "Jasorati uchun", "Jangovor xizmatlari uchun", "Belorussiyani ozod qilgani uchun", "Kingsbererni ozod qilgani uchun" kabi medallar bilan taqdirlangan. 98 yoshni qarshi olgan qahramonimiz hozirda Navoiy shahrida yashamoqdalar.

Biz, keksalarni yo'qlab, ularga quvonch-ulaшиб, duolarini olishimiz lozim. Axir, qariyalarning duosida xislat ko'p.

O'ktam KARIMOV
Nurota tuman Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi rahbari.

QADRLI QADRIYAT

Hayot — tango, bu yerda asosiy narsa harakatdir. Agar siz to'xtasangiz, raqs to'xtaydi, agar to'xtasangiz, hayot to'xtaydi. Fikr-mulohazamni Raqs haqidagi iqtibos bilan boshlashga jazm etdim. Chunki uning naqadar buyukligini, zimmasida og'ir yuki borligini barchamiz yaxshi bilamiz. Va bu yuksiz yasholmaydiganlar, shu mashaqqatni sevuvchilar har yerda bisyorligi bizni quvontiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori madaniyat va san'at taraqqiyotida o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi.

O'zbek raqs maktabi asoschilari Usta Komil Olimov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimovalarning qoldirgan boy merosi bugungi kunda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari-da, kollejlarda, raqs maktablarda dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Buning yorqin misoli sifatida viloyatimizda joylashgan Ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining raqs yo'nalishi o'quvchilari "xalqaro

raqs" kuniga bag'ishlab sahnalash-tirgan raqs tomoshasini aytishimiz mumkun. Raqs dasturidan "Vals", "Bahor valsi", "Maqomlardan popuri", "Mustahzod", "Rohat raqsi", shuningdek, buxorocho, xorazmcha va turli xil qardosh xalqlarning raqslari joy olgan.

Konsertga tashrif buyurgan mehmonlar so'zga chiqib "Bahor" raqs ansamblining erishgan yutuqlari haqida so'zlashdi. O'quvchilar erishayotgan bunday natija uchun Ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi raqs yo'nalishi ustozlarining xizmati katta.

Nilufar TO'RAQULOVA,
Ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi.

INTILGANGA TOLE YOR

Inson borki, hayotda moddiy va ma'naviy jihatdan yaxshi yashashga urinadi. O'z imkoniyatlarini ishga solib oilasi farovonligini ta'minlashga harakat qiladi. Ayniqsa, bu vazifalar erkaklarning gardanidagi burchlaridan. Bu yo'lda halol mehnat bilan farzandlarni kamolga etishtirish o'ta muhim. Qahramonimiz ana shunday to'g'ri yo'ldan og'ishmay rizq-nasibasini topib kelayotgan insonlardan.

Jahongir Ergashov 2005-yil o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topolmagach mablag' talab qilmaydigan biron biznes turi bilan shug'ullanishga chog'lanadi. Har qanday ishda ham dastavval ozroq mablag' sarflanishini o'ylab uzoq vaqt vaziyat yurgan kezlari hovlisida tashlandiq holdagi cho'p-dan yasalgan savatcha uni e'tiborini tortadi. Qarangki, qahramonimiz savatchani chang-g'uborlardan tozalab, uni qayta o'z holidagi to'qiydi. Shu as-noda to'qish ishlarini ham o'rganib oladi.

Dastlab, boshida 3 kun deganda bitta savatcha tayyorlay olgan Jahongir aka mahsulotlarini bozorga olib chiqib pullashga oshiqadi. Ammo natija kutilgandek bo'lmay, mahsulotni hech kim so'ramaydi. Odatda muvaffaqiyatsiz kechgan yumushdan aksariyat kishilar tezda voz kechib ketishadi. Biroq Jahongir Ergashev bu borada boshqacha yo'l tutadi. U kishilardan ularga qanday ko'rinishdagi savatchalar yoqishini, nima uchun foydalanishlarini so'rab oladi. Keyin esa xaridorlarining talab, istaklariga muvofiq bir-biridan bejirim va go'zal mahsulotlar yaratishga kirishadi. Ishi yurishgach, qahramonimiz bu sohani kengaytirish, shogirdlar o'rtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

2008-yil 3 gektar bo'sh turgan yerda asosan Amerika, ya'ni qayishqoqlik xususiyatiga ega tol ko'chatlarini etishtiradi. Bahorda ekilgan tol novdalari kuzga borib 2,5 metr bo'y cho'zadi. Savatlar uchun esa 2 metrliki kifoya. Albatta, tayyorlanadigan mahsulotning katta-kichikligi, shakliga qarab tol novdalari qirgib olinadi. So'ng 10-12 soat suvda bo'ktirilib, savat tayyorlashga o'tiriladi. Butun oila a'zolari bilan hunarning mohir ustasiga aylangan Jahongir aka Navoiy shahar "Tinchlik" qo'rg'oni 25-maxsus maktab-internati bolalariga ham o'z hunarining sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda.

— 2012-yilda Rossiya davlatiga tajriba oshirish maqsadida borganimda bu yo'l men uchun boshlanish ekanligiga amin bo'lganman, — deydi Jahongir Ergashov. — Boisi, u yerda bu soha chuqur rivojlangan ekan. Hozirgi kunda nafaqat milliy hunarmandchiligimiz yuksaltirish, balki yangi qo'l mehnati mahsulotlarini yaratish ustida



ham harakat qilmoqdaman. Biz o'lmas urf-odat va an'analarimiz, qadriyatlarimizni jahon xalqlari madaniyati bilan bo'ylasha oladigan darajada saqlab qolmoq'imiz, yuksaltirishimiz lozim.

Ustaning aytishicha, tol niholchalari poytaxtdan keltiriladi. Undan yasalgan mahsulotlar chiroyli va sifatligi jihatidan yuqori qiymatga ega. Yulg'in, gilos, anor novdalaridan ham bejirim buyumlar yasash mumkin, albatta, bu hunarmandning mahoratiga bog'liq. Meva soladigan yashiklar, ramkalar, savatchalar asosan qish mavsumida xaridorgir bo'lar ekan. Hunarmand tayyorlayotgan buyurtmalariga tabiiy ranglardan foydalanadi.

Bir dona savat yasash uchun kishidan anchagina iste'dod, did va sabr talab etiladi. Qolaversa, yuqori kayfiyat ham qo'l mehnatining yanada mukammal chiqishiga sabab bo'ladi. Mahsulot mayda detallardan iborat bo'lganligi bois, shoshiluvchan, toqatsiz insonlar bu hunarni o'rganishlari mushkul.

Hunarmand qo'llarida yaralayotgan san'at darajasidagi mahsulotlarning bugun o'z xaridorlari bor. Boy madaniy merosimiz, hunarmandchiligimizni yuqori bosqichga olib chiqishda Jahongir Ergashovning esa xizmatlari beqiyos desak mubolag'a bo'lmas. Yaqin kunlarda ishlarini yanada kengaytirish maqsadida yer maydoni olish harakatida yurgan qahramonimiz ishlariga rivoj, faoliyatiga ulkan zafarlar tilaymiz.

Iroda ERGASHEVA,
Navbahor tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

Hech qachon yiqilmagan odam emas, balki yiqilganda yana o'z qaddini tiklay olgan inson — kuchli insondir.

Konfusi



OLOVLI YILLAR XOTIRASI

Ikkinchi jahon urushi jahon tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgan bo'lib, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Shuningdek, o'sha davrda "qu-loq" sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgan, 538 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, 158 mingdan ko'proq hamyurtimiz urushda bedarak yo'qolgan. Ikkinchi jahon urushi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqini ham larzaga soldi. Bu ma'shum yillarda otasi, akasi, ukasi yoki sevimli yorini ajal domiga yuborayotgan xalqning faryodi ko'kka yetdi. Ikkinchi jahon urushi davomida Karmana va Konimex tumanlarining minglab farzandlari janggohlarda jasorat ko'rsatib kurash olib borganlar.

Umar Pardayev 1939-yili harbiy xizmatga chaqirilgan leytenant Ikkinchi jahon urushining shiddatli janglarida qatnashgan. Umar Pardayev ko'rsatgan qahramonliklari uchun "Qizil Yulduz" ordeni, "Jasorati uchun" (za otvagu), "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" (Za pobedu nad Germaniey) medallar bilan taqdirlanadi. 1943-yili og'ir yaralanib, Gorkiy shahridagi gospitalda davolangan va 1944-yili vatanga qaytib kelgan.

Jo'raqul Andayev Belorussiya, Ukraina, Polshani ozod qilishdagi jang-u jadallarda ishtirok etgan. J.Andayevning Belorussiyani nemis fashist bosqinchilaridan ozod qilishdagi jasorati hozirgi kunga qadar qadrlanib kelinmoqda. Chunonchi, Belorus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning imzosi bilan J.Andayevning o'limidan so'ng ham 2009-yil "Belorussiyani ozod qilinishining 65 yilligi", 2014-yili "Belorussiyani ozod qilinishining 70 yilligi" faxriy yorlig'i va medali O'zbekistonga yuborildi.

Farmon Allayev - 1941-yili Ukraina yerlaridan o'z yigitlik burchini bajarishga kirishadi. Riga shahridagi jangda qattiq yarador bo'lib, uzoq vaqt davolanadi. "Vatan urushi" (Otechestvennoy voyny) ordeni, "Jasorati uchun" (za otvagu) kabi medallar bilan taqdirlanadi. 1945-yili o'z qishlog'iga qaytib kelgan.

Ikkinchi jahon urushining og'ir yukini ko'targan yurt farzandi **Namoz Ochilovdir**. N.Ochilov 1939-yili harbiy xizmatga chaqirilib, 1941-yili janggohning old safarida xizmatini davom ettiradi. N.Ochilov 1945-yili Berlinni egallanishida va Uzoq Sharq frontida qatnashib, g'alabaga katta hissa qo'shdi. N.Ochilov 1946-yili O'zbekistonga qaytib kelgan.

Turob Qo'ldoshev 1940-yili harbiy xizmatga chaqirilib, urush boshlanganidan so'ng Rokossovskiy armiyasining razvedka qismida ishlagan. Proporshevik Turob Qo'ldoshev Stalingrad jangida qattiq yaralanib, bir muddat tanaffusdan so'ng qayta urushga kiradi va Berlinga qadar shonli yo'lni bosib o'tadi. "Jasorati uchun" (za otvagu), "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" (Za pobedu nad Germaniey) medallari bilan taqdirlangan.

Mustafo Normurodov 1941-yil kuzida jang maydoniga o'z hoxishi bilan otlangan va Stalingrad janglarida qon kechib mardonavor kurashgan. Stalin-gradda har ikkala taraf — qizil armiya

va nemis fashistlari o'rtasida qattiq jang ketadi. 1942-yili jang shunchalar uzoq vaqt davom etadiki, ikkala tarafda ham o'q dorilar tugaydi va qurollari uchidagi pichoqlar yordamida qo'l jangi boshlanadi. Nemis fashistlari son jihatdan ko'p bo'lgan bu tengsiz jangda Mustafo Normurodov qahramonlarcha halok bo'ladi.

Mo'min Jumanov 1940-yili Buxoro davlat pedagogika institutining matematika fakultetiga o'qishga kiradi. Ayni o'z sohasi bo'yicha bilim olayotgan Mo'min Jumanov Ikkinchi jahon urushi voqeahodisalariga befarq qarab tura olmadi. 1943-yil ko'ngilli talabalar qatori frontga jo'nab, Ukraina, Belorussiya, Ruminiya hududlaridagi og'ir janglarda qatnashadi. 1944-yil og'ir jarohat olib ona qishlog'i Beshrabortga qaytadi.

Narzulla Ochilovning urush xotiralaridan. "1942-yilda men ham Vatan himoyasiga otlanganman. Harbiy ko'nikmalarni ham shu jarayonda o'zlash-tirdik. Bu Moskva ostonalarida bo'lgan edi. Tankka qarshi chuqur qazdik, teraklarni qo'lda kesib, erto'lalar qurdik. Nafasni rostdash uchun berilgan daqiqalarda urushdan oldingi kunlarimizni xat erto'lalarda o'tirib esladik. 1943-yil qismimizni Minskka yo'llashdi. U qonli janglar va xunrezliklarni eslash oson emas. Eru-osmon olov ichida, hamma narsa aralash-quralash: erlar ham, uylar ham, odamlar ham. Oldin yomg'ir yog'di. So'ngra qor yog'ib berdi, shunaqa sovuq turdiki, shinellarimiz temirdek tik qotib qoldi. Shu onlarda jonajon, serquyosh O'zbekistonim qadri bilinaverardi. Jang paytida yiqilganim esimda, safdoshlarim dushmani quvishda davom etishardi. Noiloj shu yotganча o'n ikki soatlar qolib ketdim. Tunda sanitarlarning ovozi qulog'imga chalindi: "Tirik odamlar bormi?" ovoz berdi. Omad-da, meni topib olib gospitalga yuborishdi. U yerda davolandim va yana frontga qaytdim. Belorus frontidagi janglarda qatnashdim yana yaralandim, bu safar snaryad qoldiqlari oyog'imni "nishon"ga oldi, o'sha parchaning bir bo'lagi "esdalik" bo'lib qoldi. Haligacha tushlarimga snaryad portlagani, yadrolarning chehralari kirib chiqadi".

Qalandar Qabulovning urush xotiralaridan. "Jangda har bir askarning o'z o'рни va vazifasi bor edi — deya xotirlaydi Qalandar Qabulov. — Men minomyotga mina yetkazib turardim. Bondarenko familiyasi yigit navodchik edi. Navbatdagi snaryadlarni uzatar ekanman, u yelkasi-dan yaralanib yiqildi. Yiqilayotib qurolini 20 gradusga to'g'irlab nishonga olishini tayinladi. Bu uning hayotidagi eng oxirgi so'zlari edi. Men safdoshim aytganidek qildim va dushmanning snaryadlar to'plangan joyini portlatishga erishdim. Bateria komandiri Shodi Jo'raev ana shu jang uchun gimnastyorkamga "Jasorati uchun" medalini taqib qo'ygandi".

Qalandar Qabulov mohir jangchi bo'lgan. General-leytenant Sergienko, "kichkintoy" laqabli jangchini shaxsan taniganligi, beshinchi batareyadagi bu mohir jangchiga bir necha bor rahmatnomalar e'lon qilinganligi shundan dalolat beradi. Kichkintoy laqabida uning nisbatan yosh ko'rinishiga ishoragina emas safdoshlari va qo'mondon-

larning mohir jangchiga mehr-muhabbati edi. Oder daryosi yaqinidagi janglarda og'ir jarohatlandi. Leningrad blokadası, Varshavani ozod qilish va Kenisbergni olishda qatnashgan jangchining jarohatlari nisbatan tez bitib ketdi. Lekin u endi minomyotchilik qilolmasdi. Uni konvoy xizmatiga tayinlashdi. Qalandar Qabulov nemis fashizmiga qarshi urushni konvoy rotasi starshinasi vazifasida yakunlandi. Lekin uning front yo'li shu bilan nihoya topmadi-yu, 1945-yilning 12-avgustida ular tuzgan Rudankov boshchiligidagi eshelon Manchjuriya tomon otlangandi, Q.Qabulov esa uning yordamchi bo'lgan. Yaponiya armiyasini tor-mor etish, gitlerchilar bilan bo'lgan urush oldida hech narsa emasdi.

Shamsi Berdiyevning urush xotiralaridan. Shamsi Berdiyevning xotirlashicha, Kishinev shahri yaqinidagi jangda u o'ng oyog'idan yarador bo'lgan. Jarohat shu qadar og'ir bo'lganki, 85-o'qchi polkning uchinchi rotasi piyoda askari bo'lgan otaxon umrini og'iriga qadar qo'ltiq tayog'idan yordamchi sifatida foydalangan. Bu uning birinchi yaralanishi emasdi. O'sha Kishinev yaqinidagi janglarning birida ham fashistlarning daydi o'qi unga ziyon yetkazgan, lekin o'n kunda jarohat bitib ketgandi. Urushdan yarador bo'lib qaytgan Shamsi Berdiyev "Matonati uchun" medali bilan taqdirlanganidan bexabar edi, o'ylagan ham emas, 1981-yilda o'sha medal topshiriladi. Shamsi Berdiyevni harbiy komissariatga chaqirishganda u o'zicha mutlaqo boshqa fikrga bordi. Uning ikki og'a-inisi Muxtor va Nurbek ham o'sha vaqtlar urushga ketib, noma'lum yo'qolgan edi. U ularni izlab ko'p joylarga xat bilan murojaat etadi, hech bo'lmaganda birovini topishga umid qilib kutdi. Uyida katta akasi tushgan yagona surat saqlangan, kichigidan hatto o'sha rasm ham yo'q. Shu bois u harbiy komissariatga chaqirishganda ulardan birortasi haqida xabar bo'lganmikan deb o'yladi. Muhimi, mukofot egasini topdi.

Ibrohim Norovning urush xotiralaridan. Ibrohim Norov 1926-yilda Arabsaroy qishlog'ida tug'ilgan. U Urush boshlanganida 15 yoshga ham to'lmagan edi. Harbiy komissariatga, tuman yoshlar tashkilotiga murojaat qilaverib, oxiri zahiradagi polk safiga qo'shilgan. Uch oylik tayyorgarlikdan o'tib, 1945-yilning martida efreytor Norov navbatdagi jangovar polk bilan frontga jo'natiladi. Navbahorlik askar Ibrohim qisqa vaqt orasida bir necha marta ajal bilan yuzma-yuz kelib, qahramona jang qildi. Ibrohim Norov 1944-1949-yillar Ikkinchi jahon urushi va harbiy xizmatda avtomatchilar bo'linmasi komandiri bo'lgan.

Kolbitsov shahrini egallash uchun janglar borardi, Ko'chalarning birida snaryad kelib urildi. U faqat dahshatli ovozni eshitganini xotirlaydi, xolos, qorong'ilik, hamma yoq tinch. Ibrohim Norov meditsina-sanitariya batalonida o'ziga keladi. Keyin ma'lum bo'lishicha uni chalajon holatda batalon saninstruktoriga topib olgan. U o'zini o'lim iskanjasidan qutqargan sanitar qizni urushdan keyin izlab topishga muvaffaq bo'ladi. O'sha sanitar qiz Mariya Vasilevna Lapteva oilasi bilan Norovlarnikiga mehmonga keladi. Oderni kechib o'tishdagi jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'lgan Vasiliy Shvets ham 1975-yili Karma-

naga, uning uyiga tashrif buyurgan. "Qizil bayroq", "Jasurligi uchun", "Jangovar xizmatlari uchun", "Hurmat belgisi" kabi orden va medallarning sanog'idan adashasan kishi. Norov Ibrohim Norovochni nafaqat Ikkinchi jahon urushidagi qahramonlik janglari, balki yurtimiz farovonligi, obodligi uchun munosib hissa qo'shgan inson sifatida qadrlashadi.

Ikkinchi jahon urushida qanchadan qancha o'zbek yigitlari jang maydonlariga otlanib, mardonavor kurashib, qahramonlarcha halok bo'lishgan. Yaqinda "Ilhaq" badiiy filmida toshkentlik Zulfiya aya va uning besh nafar farzandining qismati namoyish qilinib, hammaning qalbini larzaga soldi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida Zulfiya ayaning taqdiriga o'xshash yana bir taqdir egasi aniqlandi. Navbahor tumanining Anorboqi qishlog'ida yashagan Ma'mura Fayziyevaning urush tufayli tortgan azobida ham frontga ketib uyga qaytmagan olti nafar alpelbat farzandlarining dog'i yotadi. **Hamro Jumayev va Ma'mura Fayziyevaning dilbandlari — Hamroyev Raxmonqul, Hamroyev Jumaboy, Hamroyev Halimqul, Jumayev Niya-tullo (Niyatulloaga bobosining ismi familiya sifatida berilgan, qolgan aka-ukalardan ba'zilarining familiyasi Jumayev bo'lishi mumkin), Hamroyev Haydar, Hamroyev Jaynarlar fashist gazandalariga qarshi urushga kirib, barchasi qahramonlarcha halok bo'lishgan.** Ma'mura Fayziyevaga farzandlaridan faqat kichigi Jaynar Hamroyevdan bittagina zurriyod — Baxron Jaynarov meros qoladi. Shu orada turmush o'rtog'i olamdan o'tib dard ustiga dard yog'ilib keladi. Barcha farzandining o'limi haqidagi qoraxatlarni qo'lga olib uzzu kun faryod chekib, mo'jiza yuz berib, hech bo'lmasa bittasini eshikdan kirib kelishini kutib Ma'mura momo 95 yoshida 1986-yili yorug' olamni tark etdi. Urush tufayli barcha farzandidan ayrilgan, boquvchisiz qolgan Ma'mura aya farzand dog'i bir tomon, og'ir qahatchilik, qiyinchiliklar ichida, hattoki, bir burda nonga zor qolgan kunlarni boshidan kechirdi. Qahramonlarcha halok bo'lgan olti nafar azamatlarning qora xatlari surishtirilganda, farzandlarini qo'msab, qo'ni-qo'shnilarga qoraxatlarni o'qitib, battar kuyib yig'lab faryod qilaverganidan, momoning asl dardini tushuna oladigan yoshda bo'lmagan, murg'ak nabirasi — momomning ko'z yoshlarini sababchisi deya qora xatlarni yoqib yuborgan ekan. Ma'mura aya barcha farzandlaridan ayrilib, yo'qchilikda umr kechirgan bo'lsa-da, Yaratganining inoyati bilan yolg'iz nabira - Baxron Jaynarovdan 8 nafar o'g'il farzand dunyoga kelib, o'z-o'zidan ko'payib, bugungi kunda Jaynarovlar oilasining a'zolari 50 dan ham ortib ketdi. Bugungi kunda farovon turmush kechirayotgan Jaynarovlar oilasining baxtli hayoti negizida 6 nafar qahramonning matonati va Ma'mura ayaning zahmatkash mehnati yotadi.

Shuni unutmashlik kerakki, ota-bobolarimiz misli ko'rilmagan azob-uqubatlardan talofatlar hisobiga butun insoniyat boshiga tushgan ofatni bartaraf qilishga ulkan hissa qo'shib, jahon tarixida o'chmas iz qoldirishdi.

**Jonibek MUSTAFOYEV,
NavDPI katta o'qituvchisi.
Feruza SAYITMUROTOVA,
To'maris ILXOMOVA
NavDPI talabalari.**



**Aslida insonni yomon xotiralar emas,
Yaxshi xotiralar ko'proq azobga soladi.**

Elchin Safarli



CHINORLAR CHORLOVI

yoxud tabiatga bo'lgan munosabatimiz bo'yicha achchiq haqiqat

Insonga uzoq umr ko'rishi uchun qaysi omillar kerak? Nega yaxshi kunlarimizda bir-birimizga chinor umrini tilaymiz? Sabab?! Darhaqiqat, chinor daraxti ming yil yashaydi. Urgut va Farg'ona tomonlarda ming yillar osha yashab kelayotgan chinorlarning guvohi bo'lamiz. Safar chog'imi, mehmonga borgandami, chinor yonida suratga tushib do'stlarimizga maqtanib ham qo'yamiz.

Xo'sh, shunday chinorlar Navoiy viloyatimizda ham bormi?.. Bo'lsa ayting, hech bo'lmasa yonida suratga tushish nasib etmasa-da, o'sha noyob daraxtni tuprog'imizda yashnab quloch yozayotganini bir ko'rib kelaylik.

Bosh chayqaysiz. Nega?.. Yo'qmi?.. Sababchi kim?..

Biz aksariyat bor chinorlarni ham chopdik. Hatto aybimiz aniq-langach, tovon ham to'ladik. Nega deysizmi?! Hozir aytaman. To'g'ri, bizning viloyatda ming yillik chinorlar yo'q. Lekin tabiatni asrash bo'yicha masalaning ikkinchi tomoni bor. Unga yaqinroq yondashaylik.

Biz maskanimizni bahavo joyga aylatirish uchun nima qilyapmiz? degan savol atrofida bir bahslashsak. Achchiq bo'lsa ham aytay:

Malik cho'lida ekologik harakat xodimlari ne bir mashaqqat bilan saksovlulzorlar barpo qilishga urinyaptilar. Biz nima qildik?! Bor ko'chatni ham o'g'irlab ketishga urindik. O'zimiz bir dona ko'chat ekmasak-da, ekkanni poymol qildik. Yana biz Zominning havosini, Surxonning so'lim go'shalarini maqtaymiz, uning kislorodga boy archalariga havasimiz keladi. Nega biz o'shanday maskan yaratish uchun astoydil urinmaymiz. Archazorlar, terakzorlar, tolzorlar, saksovlulzorlar yaratsak bo'ladi-ku.

Birgina misol: Ma'lumotlarga qaraganda, 1 ta olmazor bog'i kamida 50 tonna changni o'ziga yutib havoni tozalab berarkan. Archaning o'zi-chi, qancha zaharli moddalardan bizni xalos qiladi. Tolni kislorodga boyligini hamamiz bilamiz. Uni faqat beshikchilar ekadi, xomashyo uchun. Ekmagan taqdirda ekkannarnikini chopib ketishadi. Yana bir ayanchli ahvol, biz qanchadan qancha tutzorlarni buzib, hovli joylarga aylantirib yubordik. Bu ham tabiatga qarshi jinoyatmi? Jinoyat!..

Yoki mustaqillik yillarining boshlarida O'zbekiston



Respublikasi Faxriylar tashkilotlari uyushmasi Kengashining sobiq raisi B.Rahimov tashabbusi bilan M-37 yo'l yoqasida 1 ga terakzor tashkil qilingan edi. O'sha terakzor barq urib bo'y cho'zdi, odamlar bahri dilini ochib, qarovchi egasiga sof daromad keltirib turgan bir paytda, yer olinib (2015 yili)buzib tashlandi. O'rniaga paxta ekish mo'ljallandi. O'zimiz o'z qo'limiz bilan teraklardan-havotozalagichlardan ayrildik.

Xo'sh, yana savol tug'iladi. Aybdor kim? Yana o'zimiz.

Qissadan hissa shuki, tabiatni e'zozlasak, u bizga bag'rini ochadi. Unga qarshi harakatlar qiladigan bo'lsak, ayovsiz jazolaydi.

Yana ozon teshigi qaydan paydo bo'ldi, deysiz?! Havoga chiqib boradigan zaharli gazlar, behuda

xazonlarni yoqish, iflos chiqindilarni ochiq joylarga tashlash oqibatida ro'y bermadimikin?! Bunga ayrim sanoat korxonalari ham sababchi bo'lmayaptimikin?!

Insonga kislorod yetishmasligi, yana o'sha tabiatimizning jonkuyar daraxtlariga borib taqalmaydimi?! Qani har birimiz ko'chat ekish tashabbusini amalga oshirib, jilla bo'lsa hovlimizni gul-u gulzorga aylantirsak, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Tabiat mo'jizasi bo'lgan daraxtlar, ayniqsa chinor, tol, terak, gujum, archalar bor joyda kislorod manbai mo'l bo'ladi.

Hazrat Ibn Sino: "Dunyoda chang bo'lmasa odamlar ming yil yashardi" degan edi. Chang-u g'uborlardan esa bizni beminnat yashil tabiatimiz asraydi.

Keling, ona tabiatga mehrli bo'laylik. Bir-birimizga chinor umrini tilab chinorlar ekaylik.

Shoyim SHERNAZAR,
Karmana tumani 19-maktabning ijodiy-madaniy
masalalar bo'yicha targ'ibotchisi.

XOTIRA TINCHLIKNI ULUG'LASHDIR

Bugungi tinchlik hukm surayotgan ozod diyorumizda istiqbolni ko'ra oladigan, o'z hayot yo'llarini yurt taqdiri bilan kamarbastalikda qura oladigan, ma'naviy salohiyati kafolatlangan yosh avlodgina Vatanimizga haqiqiy tayanch bo'la oladi.

Chunki vatanparvar o'g'il-qiz, avvalo, o'zlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanadi va shu bilan birga vatanini, uning qonunlarini hurmat qiladi, fuqarolik burchlarini sidqidildan ado etadi. Ma'rifat ziyosi bilan qurolangan yoshlar bor ekan, ularning xatarli tahdidlarga qarshi ma'naviy immuniteti mustahkam ekan, shak-shubhasiz, bu maskanda inson qadri tobora yuksalaveradi.

Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlarining "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilga asoslangani hamda ta'lim-tarbiya, adabiyot, madaniyat, san'at sohalarini bu islohotlarning bosh mezonlari qilib olinganligi samarasi o'laroq barcha jabhalarda, hatto odamlar ongu tafakkurida tub burilishlar yuz bermoqda.

Imkoniyatlar yengillashgan, taraqqiyot

qiyot rivojlangan sari bizda shukronalik tuyg'usi orta borishi shart. Shukronalik ko'paysa, istiqbol ne'matlarini qadrlasak-kina, tinchlik, birdamlik, ahillik so'zlari-ning ma'nosini his etamiz, ardoqlaymiz. Inson va tinchlik, erk va ozodlik so'zlari havo bilan suvdek egizak ekanligini, bu ne'matlarni har bir odam o'z ota-onasiday, farzandiday, jigargo'shasiday yaxshi ko'rishini anglaymiz. Tinchlik hammaga kerak, jamiki mavjudotga! Haha, quyoshga talpinayotgan har bitta maysaga, ko'kda parvoz qilayotgan qushlarga, nihollarga, daraxtlarga ham... Tabiat tinchlik bilan umrboqiy va so'lim fusunkor.

Tinchlik-xotirjamlik — taraqqiyot garovi ekan, xotira ham eng muqaddas va aziz tuyg'ulardan biridir. Xotirlash bu har bir insonning yaqinlarini qadrlash, bu olamdan o'tib ketgan insonlari xaqqiga duo qilishidir. Xalqimizda "Qadr

etgan qadr topadi", degan naql bor. Haqiqatdan ham, inson o'zgalarga samimiyatda bo'lib, hurmat-ehtiromlar ko'rsatib, o'zi ham atrofdaqilarning shunday munosabatiga sazovor bo'ladi.

Demak, tinchlik, osudalik kunlarimizni qadrlashimiz uchun avvalo, tarixni chuqur o'rganishimiz lozim. Axir bu dorulomon kunlarga biz qanday erishdik? Urush qatnashchilarining, keksa kishilarning ko'nglini olish, dardiga malham bo'lish, jasorat ko'rsatib, jang-gohlarda aziz jonlarini nisor etgan jonfido bobolarimiz, momolarimiz yodini eslash va ularni sharaflash, bu xayrli ishlarni bugungi avlod ongu shuuriga singdirish har birimiz uchun farz, ham qarz bo'lmog'i lozim.

Muxtabar SAMATOVA,
Qiziltepa tumani 29-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi.

MO'YQALAM SEHRI

Insoniyat uchun ta'lim-tarbiya, estetik zavq berish vazifasini o'tovchi, shuningdek, ma'rifiy ma'lumotlar qimmatiga ega bo'lgan, bo'yoq yordamida bunyod bo'luvchi, nafis san'at turi bu — tasviriy san'atdir.



Ijodning bu turi bilan shug'ullanuvchi san'atkor-rassom ranglar vositasida tabiatni, muhitni uning ma'lum qismini-yu, ma'lum bir daqiqadagi holatini gavdalantrish bilan birga, ro'y berayotgan voqea, hodisa mohiyatini, kishilarning ichki dunyosini va uning g'oyasini aks ettiradi. Besh ustuvor tashabbusi o'quvchi yoshlarni yanada tasviriy va amaliy san'atni sevishga, turli tanlovlarda ishtirok etib, sovrinlarni qo'lga kiritishiga yo'l ochdi.

Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining "Tasviriy san'at" yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarning ham erishayotgan yutuqlari taylagina. Yurtimizda har yil o'tkazilib kelinayotgan O'zbekiston badiiy akademiyasining an'anaviy "Tasviriy va amaliy san'at" festivali bir qancha yosh rassomlarning o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga hissa qo'shmoqda. 5 kun mobaynida davom etgan An'anaviy "Tasviriy va amaliy san'at" haftaligida Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining o'quvchilari. Sarimsoqov Sanjar portret janrida chizilgan surati bilan ishtirok etib oltin medalni qo'lga kiritdi. "Milliy, etnografik, va badiiy liboslarni loyihalovchi dizayner" yo'nalishida esa Abdumominova Dilnura 2-o'rinni egallab kumush medalga sazovor bo'ldilar.

Shuni quvonch bilan aytish kerakki, har yili an'anaga aylangan bu festivalda birinchilikni qo'ldan boy bermay kelayotgan maktabimiz jonkuyar o'qituvchilari-yu, o'quvchilarining mehnatlari katta. Ishtirokchilarning ijod mahsullarini poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli rassomlar, qolaversa tumanlarda boy ko'rsatgan san'atshunoslar baholab borishdi. G'oliblarga madaniyat maktabi direktori G'.F. Sattorov tomonidan diplom va esdalik sovg'alar berildi. Albatta, yosh ijodkorlar o'z-o'zidan bu yutuqlarga erishishgani yo'q. Ustoz shogird an'anasining yorqin timsoli o'laroq, bu yoshlarga o'qituvchilarning ham mehnati katta. Behzod Choriyev, Qurbonova Gulchehra, O'rinova Marg'uba, Mirzayeva Dildoralarning sa'y-harakatlari orqali o'quvchilar rassomchilik haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib bormoqdalar. Ranglarga oshno bo'lgan yoshlarning ko'payishini va dunyo rassomchilik san'atiga hissa qo'shgan darg'alarning izidan borishlarining tilakdoshimiz. Zero, ijodkorlikning zavqini his qilgan rassom, boshqa zavqni tan olmaydi.

Nilufar TO'RAQULOVA,
Nafisa QO'LDOSHEVA,
Navoiy ixtisoslashtirilgan
madaniyat maktabi mutaxassis
o'qituvchilari.



Boylilik dengiz suviga o'xshaydi, qancha ichsang, shuncha chanqaysan.

Artur SHOPENGUAYER



Bugungi maktab hayoti

Men ishlaydigan 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi Karmana tumanining chekka hududida joylashgan.

Maktabda 650 nafar o'quvchiga 55 nafar pedagog xodimlar ta'lim va tarbiya berib kelmoqda.

Hukumatimiz tomonidan oxirgi yillarda ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etishdek maqsadlarimiz uchun mustahkam zamin yaratmoqda.



Bugungi kunda dunyo siyosatida ro'y berayotgan voqea — hodisalar ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan turli mafkuraviy tortishuvlar — fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabimizda ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab direktori S.Obilov, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari D.Hojiyeva, maktab psixologlari M. Jumayevava M.Ramazonovalar hududda jinoyatchilikning kelib chiqishini oldini olish maqsadida "Hayot go'zal", yosh avlodni turli ma'naviy tazyiqlardan himoya qilish uchun "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" aksiyalarini o'tkazib kelishmoqda.

Maktab direktori shaxsan o'zi hududdagi har bir xonadon, har bir o'quvchi bilan individual ishlashni yo'lga qo'yib, ustozlarga namuna bo'lib kelmoqda.

Maktabda besh tashabbus doirasida "Qo'g'irchoq" teatri, "Aktyor" havaskorlik to'garagi, "Nafis gullar" to'garagi, "Xor" jamoasi, "Jajji go'zallar" raqs to'garagi, Zakovat" bilimdonlar klubi faoliyat yuritib kelmoqda.

Men o'ylaymanki, maktabimiz yaqin yillar ichida ilg'or va tajribali maktablar qatoriga qo'shiladi va bu yerda ta'lim va tarbiya olgan yosh avlod Vatan ravnaqi yo'lida o'zlarining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanligini namoyon etadilar.

Nasiba HAKIMOVA,
maktab targ'ibotchisi.

TO'GARAKLARDA KREATIV FIKRLASH

Maktablarda o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlashda fan to'garaklarining o'zni beqiyos. Darsdan so'ng

o'quvchilar bilan individual ishlash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda maktabimizda "Yosh kitobxon", "She'riyat bo'stoni", "O'zbek tilim jilosi" kabi to'garaklar faol ish olib borayotir. "Sirli maktub", "Ma'nolar xazinasi", "Ijod guldastasi" kabi metodlardan foydalangan holda olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini kengaytirmoqda.

Surayyo JUMANAZAROVA,
Navbahor tumani 21-IDUM o'qituvchisi.



YETIM

— Oyi menga pul bering.
Bermasangiz bo'lmaydi oyi. O'g'il tinmay baqirar, mastligidan chayqalib-chayqalib ketardi.
— Xo'p bolam, baqirma faqat. Mana, mana hozir ketyapman.
Eshikdan chiqarkan, o'g'lining bolaligi yodiga tushib jilmayib qo'ydi. Yosh bolakay qo'lchalarini oyisi tomon cho'zib shunday derdi:
— Oyijon, pul bering, hamma o'rtoqlarim tushda muzqaymoq yeydi, bermasangiz

bo'lmaydi oyijoon.
Havo sovuq. Mayda-mayda qor yog'adi. Tuman ichki ishlar binosining ro'parasida eski shifoxona joylashgan. Hozir ishlamagani uchun eshigi berk. Ayol qo'nishibgina o'sha yerga joylashdi, pana joy topganidan quvondi va...
Qor aralash yomg'ir yog'ayotgan havoga qo'larini cho'zdi.
— Yetim haqqiga sadaqa qiling.

OQ ILON (badia)

....eshiklarni yig'lab yopdim,
Eshingini yopgin, yor.
Men-ku, seni sevib topdim
Sen Xudodan topgin yor.

Urush yillari. Nima bo'lsa frontga bo'lgan vaqtlar. Ne holki, kolxozdan yuborilgan bug'doy oblastda qayta o'lchansa qog'ozdagidan, anig'ini bilmayman, qanchadirgina kam keladi. Shu shu, urush o'ti yonib turgan zamonda kolxoz raisidan tortib bug'doyni sug'organ suvchigacha "og'ir kunda xiyonat qilgan xalq dushmani" degan ayblovlar bilan qama-qama boshlanib ketadi. Bobom raisining ishchisi bo'lgan. Tortilgan bug'doy manzilgacha qanday kamayib qolgan, yoki yo'lida "kalamushlar" teshib yeganmi, xullas, yarim kechada bobomni ham izlab kelishadi.

O'ttizinchi yillarda akasi jadidchilar qatorida quloq qilinib qaytib kelmagan, ota-onasi yagona o'g'lining hajrida kuyib o'tib ketganini ko'rgan buvim turmush o'rtog'ining ham ketsa kelmasligidan qo'rqqanidanmi, qo'shni hovlidagi askarlar ovozi kela boshlagach, bobomni hovlidagi katta tutga chiqarib yuborgan ekanlar. Javdiragan to'rt jon bola, beshikda chaqaloq dadam bilan beshta. Askarlar uy devorlarini, suvoqlarni qo'porib bug'doy izlashgan (u zamonlar bug'doyni loyga qorib suvab yashirishgan ekan), hech nima topa olishmagach bobomni so'rashgan... Rahmatli buvim aqlli, tadbirli ayol bo'lgan. "Xo'jaynim uch kunga deb oblastga ketgan edi", — degan ekanlar, oblastda bo'lsa qachonlari qo'lga tushgan deb o'ylagan askarlar uyni tark etishgan.

Qolish o'lim degani. Yarim tunda bir bo'g'chaga arpa noni, ozroq tut qoqi, jiyda solib bobomni boshqa tumanga jo'natib yuborgan.

Shu ko'yi bobom olti yil dom-daraksiz ketgan. Bu yillarda buvimning boshidan o'tgan sitamlarni o'zi bilgan, Alloh bilgan. Besh bolaning to'ng'ichi qizi o'n yetti yoshida nomsiz xastalikdan uch kunginada o'lib qolgan, bir yil o'tar o'tmas ikkinchisi o'g'li o'n besh yoshida qishga quritish uchun qoqaman deb hovlidagi o'sha tutdan yiqilib bu dunyoni tark qilgan. Qo'lida chaqaloq dadam bilan bolalari qabriga borib uzoq yig'lab qaytarkan bechora buvim. Bir kun dard xayolini olganmi,

qabr yoniga qo'ygan chaqaloq yodidan ko'tarilib qaytib kelayotganda qo'shni kampir "bolang qani", — deb so'ragach jon holatda qabristonga qaytgan buvim dadamning yonida katta ilon qarab turganiga guvoh bo'lgan. Chaqaloq uyquda, ilon esa yaqinlashmoqchi bo'lgan qurt qumursqalarni bolaga tegintirmay boshida qorovul bo'lib turgan emish.. "Akangmidi, opangmidi u seni asragan", — deb ko'p eslarkan keyin ham.

Alloh sinov bersa ayamay beradi. Bobom keladigan yili to'rtinchi farzandi erkato'y qizini ham ochlik azobidan tuproqqa bergan. Buvim do'ppi tikib sotarkan — ikki bolani boqish kerak. Qishloqning u chekkasidan hovuchida cho'g' to'pib kelib o't yoqib uy isitgan, kolxozning nonini yopib, yopganiga bitta non olib kelarkan. "Allohnining o'zi kechirsin, rais bugun non berolmayman, keyingi gal olasan degan kuni atay bitta nonni kulga tashlaganman. Kul aralash bo'lsa kolxozga chiqmaydi, qanday bo'lsa ham bolalarimga olib boray deb", deya qilgan "gunohini" aytib yig'lagan pallalari ko'p bo'lgan ekan.

Shunday qilib, olti yildan so'ng, bedarak ketgan (tirik o'ligi noma'lum) bobom yonida bir qizcha bilan qaytib keladi.

Ishlar bosti-bosti bo'lib ketgach, uzoq tuman-dagi kolxozda ustachilik qilgani, kolxoz raisining qiziga uylanganini, turmushi farovon o'tayotganini, bolalarini sog'inganini (olti yildan keyin), aytadi.

Buvim gapi o'tkir, hamiyatli ayol bo'lgan ekanlar. O'sha vaqtda olti yashar bo'lgan dadamning xotirlashicha, lattada o'rog'liq go'shtni ko'rib aka-uka rosa quvongan, lekin buvim go'shtni ham olmasdan bobomni qaytarib yuborgan... "Keta-yotib otamning yonidagi qizchani peshonasidan o'pib qo'ydi faqat", — deb eslaydi dadam. Ayti-shicha, bu qizaloq yaqindagina yo'qotgan kichik opasining xuddi o'zi bo'lgan.

"Hoy, oq ilon, oppoq ilon
Tishingdagi zaharmi?
Qon yig'ladim men ko'p yomon,
Kuldiriganing saharmi?"

Ozodaxon O'ROQOVA

ILM ORTIDAGI HAYOT

Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin ekan. Doimgidek darsdan qaytayotgandim ko'chada bargga qalam bilan bir nimalarnidir yozayotgan keksha cholgacha ko'zim tushdi. Sekin borib unga yaqinlashdim. Biroz qo'rqdim ham, chunki u shunchalar yupun kiyingandi va soch-soqollari o'sib ketgan ham edi.

So'ng yonimdan bir ayol o'tib ketayotganida u ayolni to'xtatib bu odam tanish-tanimasligini so'radim. U esa "boshga bitgan balo bo'ldi-yu bu chol" deya zarda bilan javob qaytardi. Qachon qarama shu yerda turadi, o'zicha bir nimalarni qidiradi, deb so'zini yakunlagan ham edi. Eshitishimha, bu cholning asli yetuk olimlardan bo'lgan, o'qish, ilm deb butun hayotini bergan ekan.

Shunda nimadir tanamni seskantirib yubordi. O'zimdan nafratlanib ham ketdim. Men endigina o'n olti yoshga kirib, erinchoqligim tufayli ilmnizoye ketkazayotgan ekanman.

Ota onamning ishonchini qanchalik oqlay olayapman?!

Eh, men tengi yoshlarda, g'ayrat ko'p, shijoat limmo-lim, ammo kelajagimizga erinchoqlik rahna solmoqda.

Unutmang, ertangi kun o'z qo'limizda, zero uni qay yo'l bilan boshqarish kerakligini idrok qila olishimiz zarur.

Zuhra RAYIMOVA,
Navbahor tumani 2-maktab o'quvchisi.

Odam og'riqni his etsa, demak, u tirik. Madomiki, birovning og'rig'ini his etsa, demak, u inson.

Fransua Gizo

O'TINCH

Uzoq shimoldan kelgan,
Sovuq shamollar tindi.
Yuzini yuvib osmon,
Bulut bilan artindi.
Quyosh qilib tabassum,
Nur yoydi tog' ortidan.
Gul, lola bosh ko'tardi,
Xarsang toshlar ostidan.
Novdalar turfa rangli,
Gulchambarlar taqmoqda.
Yigit-qizlar nigohi,
O'xshab ketar chaqmoqqa!
Muhabbat olov bo'lib
Tug'ilmoqda yurakda!
Bahor, yoz kelar-kelmas
Yetkaz ezgu tilakka...
Bahorim, bir bahor bo'лки —
Muhr sol umrimizga.
Yoz, kuz, qish kelganda ham
Sen ketma ko'nglimizdan!

Istam HASAH,
Qiziltepa tumani,
6-umumta'lim maktabi ijodiy-
madaniy masalalari bo'yicha
targ'ibotchisi.

BORMIKIN?..

Dil-o, ketdik, ul yor yetmas
manzillarga,
Dilni ayro qiladurg'on yo'l bormikin.
Laylidurmen, nechun yorim Majnun
bo'lmas,
Ishq dashtida men kezmagan cho'l
bormikin?!
Qancha boshim egسام, shuncha
osmon bo'ldi,
Diydor istab oy yuzlarim somon bo'ldi,
Hajrida ko'z yoshlarim to'rt ummon
bo'ldi,
Ul ko'z yoshdek sadoqatli ko'l
bormikin.
Ne yozilmish, qismatim dun kitobida,
O'zim shohmen, o'zim faqir ishq
bobida,
Qoldim, yolg'iz qavjiragan oftobida,
Mendek bag'ri yonib bitgan kul
bormikin?!
Bul zimiston tunlarimni yoritmas moh,
Men mahzunmen, yorim unda shoddir,
ey, voh,
Yuragimga bir bevafo sultondir, oh,
Bizni sulton bilgan bitta dil bormikin?!
Qadrim tiyin bo'ldi, ishqning bozorida,
Zarra bo'ldim, ming zarralar ozoridan,
Ey, yoronlar, aytin, ko'ngil gulzorida,
Gullar aro Lobardek bir gul bormikin?!
Dil-o, ketdik, ul yor yetmas
manzillarga...
Lobar MADIYEVA

TUSHIMDAGI KOINOT

Bir kun oilam bilan
Otlanibman safarga
Men uchayman har tomon
Ust-bosh yig'ib sumkamga.
Bir zum o'tmay qarasam,
Samolyot peshonamda.
Hech ishonmas ko'zlarim,
Hali ham hayajonda.
Bir yumib ochsan ko'zim,
Koinotdamiz mavhum.
Hammayoq odam gavjum,
Qo'g'irchoqdek turar jim.
Barcha sharoit bisyor,
Internet, telefon bor.
Salom-alik, suhbat yo'q,
Shu faqat berdi ozor.

MEHRIBONIMGA

Sizni tillolarga alishmaydi qizingiz,
Har on, har lahzada duodasiz o'zingiz,
Mehriningizni ifodalar nurli yuzingiz,
Dunyoning bor baxti siz uchun ona.
Istang unay poyingizda maysa bo'lib,
Har tong ko'ray yuzingizni baxtga
to'lib,
Madad bo'lay o'zim sizga farzand
bo'lib,
Hayot quvonchlarini siz uchun ona.
Siz Alloh yaratgan munis hilqatsiz,
Siz dunyo bosh eggan nurli jannatsiz,
Siz boshdagi toj-u ajib davlatsiz,
Mehr-muhabbatim siz uchun ona.

Marg'uba BAHRIIDINOVA,
Karmana tumani 11-maktabining
musiqqa fani o'qituvchisi.

YOSHLAR UCHUN

Yaxshiyamki, hur zamonda
yashayapmiz,
Imkoniyatlar eshigi ochiq biz uchun.
Gar intilsak maqsadga-da erishamiz,
Yoshlar ko'rsatajak albat o'z kuchin.

Qurdirdingiz juda ham ko'p imoratlar,
Masjid qurib, yana qancha olib savob.
Kitobxonlik ishlaridan zavqqa to'lib,
Endi har dam o'qiyapmiz ezgu kitob.

Tashabbuslar yaratdingiz yoshlar
uchun
E'tiborni qaratdingiz yoshlar uchun.
Xavf-u xatar yaqinlashmasin ilohim,
Sog'u omon bo'ling doim bizlar uchun!

Dilnura EGAMBERDIYEVA,
Jizzax viloyati Forish tumani
27-maktab 9-sinf.

YURAKDAN BOSHLANUR...

Aslida Vatan ham ona ham
Yurakdan boshlanur yurakdan.
Toza qalb boshlanur, albatta,
Eng avval eng oppoq tilakdan.

Har joyda asqotgan bilim ham
Yuragim tubidan boshlangan.
Bobolar yodini eslasam,
Faxrdan ko'zlarim yoshlangan.

Dunyoda gullar ko'p turfa xil
Bahor iforlari dilimga jodir.
Bahorlar boshlangan shu bir
Jajji yuragim nelarga qodir..

Ozoda MARDONOVA.

ONAJON

Qizim deng, onajon, yana ming bora
Rayhonim, gulim deng yana ming
Yoshingiz ming yoshdan oshsin
takrora
Ona poyingizga ta'zim qilay men.
Hayot tashvishlarin hech ham
o'ylamang,
Faqat baxtni so'ylang, g'amni
so'ylamang,
Shodlikdan kuylang, o'ksib
kuylamang,
Ona poyingizga ta'zim qilay men.

Onamsiz yagonam, shudir dil so'zim,
G'amlarni unuting, kuling oy yuzim,
Sizga doim aytar eng shirin so'zim,
Ona poyingizga ta'zim qilay men.

Gulsunoy DUSHANOVA,
Navbahor tumanidagi,
2-umumta'lim maktabi
8-sinf o'quvchisi.

SHAMOL

Mayin shamol esib g'ir-g'ir,
Quvontirar dilimni.
Osmonda uchib gir-gir,
Silab o'tar yuzimni.
Bulutlarning ortidan
Quvib sira qolmaydi.
Bizni quvontirishdan,
Shamol jon hech tolmaydi.
Diyora ERGASHEVA,
Xatirchi tumani 51-maktab
5-sinf o'quvchisi.

ONAMGA

Onam mening qalbmni
Nuri, gavhar zaridir,
Har vaqt men uchun aziz
Oqko'ngil va paridir.

To'g'ri yo'lga boshlaydi,
Onam solih zotdir,
Men uchun — doim aziz
Onam borku g'am yotdir.

Ozoda XAYRULLAEVA,
Navbahor tumani 2-umumta'lim
maktabi o'quvchisi.

INSON QADRI

Bu yorug' olamda yashayapmizki,
Balanddir qadrimiz, g'ururimiz ham.
Mudom so'nmagaydir bu yurt qadr,
Vatanim hech kimdan bo'lmas
sira kam.

Avaylab suramiz ko'zga ushoqni,
Tabiat ne'mati buncha lazizdir.
Dunyoda bilingki, aziz non kabi,
Inson qadri ulug', inson azizdir.
E'zozlang hamisha bir-biringizni,
Beg'ubor dilingiz baxtlarga to'lsin.
Arimasin aslo mehr-oqibat,
Xalqimiz hayoti farovon bo'lsin!

Hulkar G'AYBULLAYEVA,
Karmana tumani 19-maktab
o'quvchisi, "Oydinbuloq"
to'garagi sardori.

OZMOQCHIMISIZ? QULUPNAY ISTE'MOL QILING

Qulupnayni barcha sevib iste'mol
qiladi.

Qulupnay yurak shakliga o'xshab
ketganligi sabab ham uni muhabbat
mevasi deb ham atashadi. Qolaversa,
tarkibidagi rux moddasi tabiiy afrodi-
ziak (ehtirosni qo'zg'atuvchi) meva
hisoblanadi. U organizmda gormonlar
ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi.
Shuningdek, tarkibidagi S darmon-
dorisi tufayli qulupnay chehrangizda or-
tiqcha ajinlar paydo bo'lishiga to'sqinlik
qiladi. Bilsangiz, nordon qulupnay od-
diylariga qaraganda ko'proq yoshartirish
xususiyatiga ega. Mevadan yuz uchun
niqoblar tayyorlashga erinmasangiz,
uzoq muddat ajinlar sizni chetlab o'tadi.

Ortiqcha vazndan xalos bo'lishga ki-
rishganlar uchun qulupnay benazir yor-
damchidir. 100 gramm qulupnay meva-
sida atigi 30 kkal. bo'lsa-da, mazali va
to'yimlili uchun uni juda qadrlashadi.
Xuddi shuncha miqdordagi qulupnay
S darmondorisiga bo'lgan kundalik eh-
tiyoringizni bemaol qondira olarkan.

Qulupnay mevasining ko'plab foydali
jihatlari bo'lishi bilan birga zararli xusu-
siyatlari ham yo'q emas ekan. Ya'ni osh-
qozon ichagi biroz bezovta qiladiganlar
bu mevadan ehtiyot bo'lganlari ma'qul.
Qulupnayni smetana, yog'siz qaymoq
yoki tvorog bilan iste'mol qilgan afzal.
Chunki ushbu sut mahsulotlari tarkibi-
dagi yog'lar oshqozon devorini qoplab



oladi va kislotalarning oshqozonga ziyon
etkazishiga yo'l qo'ymaydi. Bundan
tashqari, sut mahsulotlari bilan iste'mol
qilingan qulupnay tishlarga ham ziyon
etkazmaydi. Qulupnay oshqozonda
biyg'ish jarayonini keltirib chiqarganligi
tufayli ovqatdan keyin desert sifatida
tanovul qilish tavsiya etilmaydi.

Yana shuni ham unutmangki, Qon bo-
simiga qarshi dori vositalaridan foydala-
nayotgan bo'lsangiz, buyragingizni as-
rash uchun qulupnayni haddan ziyod
iste'mol qilmang. Yana albatta, aller-
giyaga moyil har qanday inson qulupnay
sotiladigan joylardan bir chaqirim uzoq-
dan o'tishlarini maslahat beramiz. Boisi,
mazkur meva kuchli allergik kasallikni
rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Internet materiallari asosida
tayyorlandi.



Muassis:
Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markazi
Navoiy viloyat bo'limi

Bosh muharrir v.v.b:

Toshbibi HAKIMOVA

Gazeta Navoiy viloyat Matbuot
va axborot boshqarmasi
tomonidan 2017-yil 20-iyunda
07-055 raqami bilan qayta
ro'yxatga olingan.

www.manaviyat-kuzgusi.uz
faks: (55) 351-64-01

Tahririyat manzili:

Navoiy shahar Islom
Karimov ko'chasi 3 A-uy

Navbatchi muharrir:
Umida RAXIMOVA

Texnik muharrir:
Odiljon
NORTOJIYEV

Nashr indeksi - 1707

Buyurtma -

400 nusxada bosildi.

hajmi 2 bosma taboq.

qog'oz bichimi A3.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Gazeta "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя
дружбы" gazetlari tahririyati MCHJning
matbaa bo'limida ofset usulida bosildi.
BOSMAXONA MANZILI:
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 36-uy.
Tel.: 79-224-40-03.

Gazeta har oyda ikki

marta chop etiladi.

Gazeta sifati uchun

bosmaxona mas'ul.

Topshirildi -

Chop etish vaqti -

ISSN 2181-872X

